

отражают важнейшие стилевые основы и художественные позиции каракалпакской музыки своего времени, особенности исторического развития национального искусства, но вместе с тем и индивидуальные творческие черты композитора.

**SUMMARY.** This article tells about the composer's piano works, which are interesting in terms of genre, imagery, content and intonation, and were created during a significant period of the composer's creative activity. A number of works were published. They reflect the most important stylistic foundations and artistic positions of Karakalpak music of its time, features of the historical development of national art, but at the same time the individual creative traits of the composer.

## YANGI TALQINDAGI QO'RQIT OTA AFSONASI

Ajiniyaz Ismailov - o'qituvchi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** teatr, dramaturg, aktyor, rejissyor, spektakl, ijodkor, repertuar, dekoratsiya.

**Ключевые слова:** театр, драматург, актер, режиссер, спектакль, создатель, репертуар, украшение.

**Key words:** theater, playwright, actor, director, performance, creator, repertoire, decoration

Qo'rqit ota ko'plab turkiy xalqlar afsonalarida donishmandlik, bilimdonlik, yetakchilik, iste'dod va xarizma timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Bu afsona haqida qoraqalpoq adabiyoti va ilmiy manbalarida yoritilgan ma'lumotlarni umumlashtirganda Qo'rqit otaning og'uz-qipchoq qabilasiga mansubligi, o'z davrining faylasufi hisoblanib, umrining oxirigacha insonlarning yaxshi yashashi uchun doimo izlanishda bo'lgani va qo'biz soz asbobi orqali insonlarning dil izhorlarini tarannum etganligi ma'lum bo'ladi. Qo'biz aslida inson qo'li bilan yaratilgan bo'lsa ham, uning paydo bo'lishiga ilohiy kuchlar asos bo'lganligi ta'kidlanadi. Bu ma'lumotga undan taraladigan mungli ohang ishonishga undaydi. Chunki, qo'bizda chertiladigan kuy va uning ohangrabodek sasi eshitgan insonni biroz bo'lsa ham xayolga cho'mdirib, ko'ngilni hotirjam qiladi.

Qo'rqit Ota afsonasi haqida bugungi kunda bir qancha video va multiplikatsion filmlar yaratilgan, spektakllar sahnalashtirilgan. Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan "Qo'rqit Ota" spektakli Qirg'iziston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Qayrat Imanaliyev pesasi asosida sahnalashtirilgan bo'lib, ushbu asar turkiy xalqlarga birdek taalluqli bo'lgan Qo'rqit Ota afsonasini o'zida jamlagani bilan e'tiborlidir. Afsonaga ko'ra, Qo'rqit ona qornidan 3 yil, 3 oy, 3 hafta, 3 kunda dunyoaga keladi. Qavmdoshlari ungacha homilador ayolga qarata "bu bola nega tug'ilmayapti ekan, xosiyatsizlik belgisi bu" deya turli xil tuhmatlar yog'dirishadi. Chaqaloq dunyoga kelayotganida qattiq chaqmoq chaqib, yer larzaga keladi. Qavmdoshlaridan biri ayolga: "Sen o'g'lingning ismini Qo'rqit deb qo'ygin"

deb aytadi. Qo'rqit o'sib-unib, 40 yoshga kirganida, ajal ta'qib qila boshlaydi. Shaytonlar va jinlar doimo u bilan birga yurishadi. O'z joniga qasd qilishini kutishadi. Qanchalik urinmasin, o'ylamasin, har doim ajalga ro'baro' kelaveradi. Marhum qavmdoshlarining ruhi tinchligini buzadi. Oxir-oqibatda, Qo'rqit yolg'iz tuyasi Yelmoyani so'yib, terisidan qo'biz yasaydi va shu orqali bardavomlik yo'lini anglaydi.

Taniqli ma'rifatparvar, filologiya ilmlarining doktori, professor, tarjimon, qoraqalpoq folkloristikasining asoschilaridan biri Qalli Ayimbetov o'zining "Xalq donoligi" kitobida qo'biz soz asbobining paydo bo'lish tarixi haqida shunday deydi: "Qoraqalpoq jirovlarida bu soz asbob haqida mana shunaqa afsonalar saqlangan. Esemurat jirov bilan Qiyas jirov shunday deydi: "Qo'bizning piyri Qo'rqit ota va Devonaiy burq deya eshitganmiz. Bizlardan avval o'tgan jirovlar shunday afsona aytar edi. Qo'rqit ota yog'oshdan qo'biz yasab soz chertishni armon qilibdi. Ko'p yog'oshlarni yo'nib ancha ovora bo'lsa ham, ishlagan qo'bizidan natijja chiqar olmapti. Qo'rqit otaning qo'biz yo'nib o'tirganini shaytonlar ko'rib, Qo'rqit otadan qo'bizingni ko'rsat desa, Qo'rqit ularga qo'bizini ko'rsatmasdan, yashiribdi. Undan keyin Qo'rqit ota o'rmondan chiqib ketgan kishiga uxshab, yashirib oladi va ikkinchi yo'ldan borib shaytonlarning gapini tinglay boshlaydi. Shaytonlar Qo'rqit ota haqida: "Qo'rqit ota juda ajoyib ishni boshlagan ekan, lekin, oxiriga etkiza olmapti. Agarda u o'rmondagi to'ngiz suykanib, qovjiragan jiyda yog'oshidan qo'bizni yo'nsa, undan to'stog'on yasasa va uni baqiroviq tuyaning bosh terisi bilan qoplasa, unga o'ta kisnovchi otning dumidagi yolidan olib qil taqsa, qumlik joyda yoki tog'da o'sadigan sasiq

qurayning shirasidan yaxshi qilning tagidan ko'tarib turuvchi eski qovoqdan yo'nib tiyek solsa, juda ham soz chiqqish asbob bo'lar edi", - debdi. Qo'rqit ota huddi shaytonlarning aytganidek qilib qo'biz yasagan ekan, turli noma chertiladigan ajoyib soz asbobi bo'libdi. Shundan keyin Qo'rqit ota qo'bizni har xil nomaga solib chertib yuraberibdi. Mana ushandan buyon Qo'rqit ota qo'bizning piyri bo'libdi..."

Qo'biz soz asbobining yasalishi haqidagi rivoyat spektaklda ham o'z aksini topgan. Yana shunday tomoshabinlar e'tiborini tortgan ko'pgina jihatlardan qarg'alar, qabr motivi, tuyaning so'yilishi, onasining tirilib qaytib kelishi kabi voqealar rivojida muhim rol o'ynaydi hamda tomoshabinga kuchli ta'sir qiladi. Sahna asariga mos tanlangan qo'shiqlar, asar saviyasini yana bir karra oshiradi. Xoh asosiy qahramonlar bo'ladimi yo personajlarmi, har biri o'ziga yuklatilgan rolni ichki tug'yon va tuyg'ular qurshovida mahorat bilan ijro eta olgan.

Qo'rqitning ajalni yengishi, qo'biz vositasida umrboqiylik kasb etishida ramziy ma'no ham bor. Inson umri davomida qilgan ezgu ishlari, ezgu amallari albatta keyingi avlodlarga yetib borishi, ular avlodlarda davom etishi yorqin chizgilarda aks etgan. Turkiy xalqlar ta'biri bilan aytganda, Qo'rqit Ota aslo o'lmaydi. U turkiylar qalbida umrbod yashayveradi.

Qoraqalpog'iston davlat yosh tomoshabinlar teatri jamosi mehnat mahsuli bo'lgan "Qo'rqit ota" spektakli rejissyori Sultonbek Qallibekovdir. Hali yosh bo'lishiga qaramay, turkiylar, xususan, Qo'rqit Ota afsonasiga xos muhit yarata olgani tahsinga sazovor. 2022 yil 26-30 sentabr kunlari

Toshkentda bo'lib o'tgan yosh rejissyorlarning "Debyut-2022" ko'rik-festivalida yosh rejissyor Sulton Qallibekov "Qo'rqit ota" spektakli bilan munosib qatnashab, ilk debyut spektakli bilan 2-o'rinni egalladi. Oradan ko'p vaqt o'tmadi yangi jamoaning yangi rahbarlari fidoyligi tufayli 2022 yil dekabr oyida Qoraqalpoq va Qirg'iziston teatrlari hamkorligi yo'lga qo'yildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatri jamoasi "Qo'rqit ota" spektakli bilan Qirg'iziston Respublikasida xizmat safarida bo'ldi. Ikki kun davom etgan tashrif davomida teatr jamoasi tomonidan Qirg'iz davlat akademik drama teatrida namoyish etilgan mazkur spektakl tomoshabinlarda iliq taassurot qoldirdi. Spektakl ijodkorlari Qirg'iz respublikasi Madaniyat, sport, turizm, axborot va yoshlar siyosati vazirligi faxriy yorlig'i, shuningdek, "Uranim Manas" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Teatr jamoasi mazkur spektakl bilan 2023 yili Toshkentda o'tkazilgan "Evroosiyo" xalqaro teatr san'ati festivalida ishtirok etib, festival hakamlari va boshqa teatrhunoslar tomonidan spektakl yo'qori baholandi.

Teatr san'ati ma'naviyatning eng yorqin, ta'sirchan ko'rinishlaridan biridir. Zero, u tomoshabinlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sahna bilan tomoshabinlar o'rtasida samimiy bog'lanish, muloqot hosil bo'lib ham sahna ijodkorlarini ham tomoshabinlarni ma'nan boyitadi, ruhini sozlaydi, ko'nglini ko'taradi. Darhaqiqat, teatr ma'lum millatning o'zligini, orzu-intilishlarini, tarixini, kelajagini, urf-odatlarini, qadriyatlarini badiiy obrazlar orqali ifoda etuvchi beqiyos san'atdir. Bu esa mustahkam dramaturgiyaning milliylik xususiyatlari bilan belgilanadi.

### Adabiyotlar

1. Qodirov M.X. muharrirligi ostida. "Istiqlol va milliy teatr", T.: "Yangi asr avlodi". 2002. 22-bet.
2. Ayimbetov Q. Xalq danaligi – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1988

**REZYUME.** Maqola Qoraqalpoq davlat yosh tomoshabinlar teatrida sahnalashtirilgan "Qo'rqit ota" spektaklining yangi talqini, spektaklning yutuq va kamchiliklari haqida.

**РЕЗЮМЕ.** В статье речь идет о новой интерпретации спектакля «Коркит ота», поставленной в Каракалпакском государственном театре юного зрителя, достижениях и недостатках спектакля.

**SUMMARY.** The article is about the new interpretation of the play "Korkit Ota" staged at the Karakalpak State Theater of Young Audiences, the achievements and shortcomings of the play.